



IMOM AL-BUXORIY RIVOYAT QILGAN HADISLARDAGI صَبْح (TONG) SO‘ZINING
LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI
(O‘zbek va ingliz tillari misolida)

*Temirov Jasur Nazirjonovich,
SamDCHTI o‘qituvchisi*

Tayanch so‘z va iboralar: *subh, saboh, sobiyha, fajr, solat, jor, majrur, foil, maful, izofa, leksika, semantika.*

Dastlab shuni ta’kidlamoqchimizki, Imom al –Buxoriy ilmiy merosini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki turkologiyada, hatto jahon tilshunosligida ham hali yakun topmagan va hozirgi kunda ham davom etmoqda. Biroq, bizning nazarimizda, ushbu ilmiy meros to‘laligicha arab tilida, yoki bo‘lmasa o‘zbek tilida hamda ingliz tahlillarida alohida-alohida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotni o‘zbek, arab va ingliz tillarida qiyosiy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan ishlar hali yetarli darajada tadqiq etilgan emas deb o‘ylaymiz. Shu bois, Imom al –Buxoriy rivoyat qilgan hadislarda payt ravishlarini qiyosiy jihatdan o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qildik.

Darhaqiqat, حديث “Hadis” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “gap”, “so‘z”, “xabar”, “hikoya” va “yangi” ma‘nolarini bildiradi va hadis ilmi bilan shug‘ullanayotgan kishi uchun arab tilini yaxshi bilish zaruriy bo‘lgan ilmlardan biridir.

Hadisshunoslik ilmini o‘rganishda Imom al-Buxoriy rivoyat qilgan hadislar muhim manbalardan biri hisoblanadi. Undagi hadislarning leksik tizimi rang – barang bo‘lib, oziga xos uslubiy semantik xususiyatlarini namoyon etadi. Albatta, Imom al–Buxoriy rivoyat qilgan hadislarini boshqa tildagi tarjimalarga qiyoslaganimizda bunga ishonch hosil qilamiz.

Bu borada o‘zbek olimlaridan, fan doktori, professor, islomshunos olim U. Uvatov, S.Madaminov, Dushan Fayziy, D.Murodov, Abdulaziz Mansur, D.Raimjonov, J.Hamroqulov. va tarjimonlar:Sh. Boboxonov, N.Ataboyevning ilmiy ishlarini, rus tilida D.Yermakov, S.M.Prozorova, Djon Byorton, Sh.Z.

Babaxonov, tarjimon Vladimr Abdulla Nirsha, Arab tilidagi ilmiy ishlardan Ibn Saloh, Mahmud Tahhon, Ibn Hajar Asqaloniy, Mulla Aliy-ul Qoriy va boshqalarning ishlarini keltirishimiz mumkin.

“So‘zlar va jumlar ma‘nolari o‘rtasidagi farqga asoslanib, biz semantikani o‘rganishda ikkita asosiy bo‘linishni tan olishimiz mumkin: *leksik semantikavaiboraviy semantika*. Leksik semantika - bu so‘z ma‘nosini o‘rganish, frazematik semantika – ayrim leksemalarning kompozitsion birikmalaridan kelib chiqib, iboralar va jumla ma‘nolarining qurilishini boshqaradigan tamoyillarni o‘rganishdir.

Umuman olganda, so‘zning semantik tarkibdagi leksik ma‘nolar dastlab ikkita katta guruhga “hozirgi” va “avvalgi” leksik ma‘nolarga bo‘linadi.

Hozirgi leksik ma‘no til taraqqiyotining bugungi bosqichiga, avvalgi leksik tushuncha esa til taraqqiyotining o‘tmishdagi bosqichlariga xosdir.

Masalan, hadislardagi “tong”, “subh”, “saboh” terminlari tong, tongning boshlanishi, namoz (bomdod namozi) kabi leksemalar avvalgi leksik ma‘noni anglatib bir qancha ma‘nolarni qayd qilgan, ya‘ni tartib, qoida, odat kabi ma‘nolarda ham qo‘llanilganini kuzatish mumkin. Masalan,

Al-Farohidiyning معجم العين “Mu’jamul-ayn” asaridasubhso‘ziga quyidagichata’rif keltiriladi:

و الصُّبْحُ وَ الصَّبَاحُ: هُمَا أَوَّلُ النَّهَارِ. وَ الصَّبِيحُ: شِدَّةُ حُمْرَةِ فِي الشَّعْرِ، وَ هُوَ أَصْبَحُ. وَ الْأَصْبَحِيَّةُ وَ الْأَصْبَحِيُّ: غِلَاطُ السَّيَاطِ وَ جِيَادَهَا، وَ تَقُولُ: أَصْبَحَ الصَّبِيحَ صَبَاحًا وَ صَبَاحَةً. وَ صَبَّحَ الرَّجُلُ صَبَاحًا وَ صَبَّحَهُ [10:126]

va الصُّبْحُ so‘zlari kunning avvalgi qismi. Saboh bu soch (ot yoli) dagi kuchli qizarish. صَبَّحُ tongga kirmoq, tongda turmoq,



tong ottirdi, الْأَصْبَحِيَّ qamchi, darra, (ilk bora qamchi tutgan Yaman podshohlaridan الْأَصْبَحُ ga nisbatan) [1:741].

و فِي الْمَغَائِيسِ "و الصَّبَاحُ: نُورُ النَّهَارِ. وَ هَذَا هُوَ الْأَوَّلُ" [9:328]

“Maqoyiys” kitobida الصَّبَاحُ (Sobah) kunning avvalidagi yorug’lik” deb keltiradi.

Quyida keltirilgan leksemalarning uzual va okkazonal ma’nolariga e’tibor qaratsak:

1. Uzual ma’no-leksemaning semantik tarkibida bor bo’lgan leksik ma’nosini anglatadi.

2. Okkazonal ma’no-leksemaning tildagi ma’nosiga xos bo’lmagan, ayrim shaxsning leksik qo’llashi natijasida yuzaga keltirilgan sun’iy ma’noni anglatadi.

Imom al-Buxoriy rivoyat qilgan hadislardagi صَبَحَ (subh) so’zining turli xil kelishik hamda ma’nolarda kelishini ko’rib o’tamiz.

صَبَحَ (subh) so’zi مرفوع bosh, منصوب tushum va مجرور qaratqich kelishiklarida (alif lom) bilan aniq holatda ko’pincha الصلاة (namoz) kalimasi bilan birga kelishini va صلاة الفجر (bomdod namozi) ma’nosini ifoda qilishini ko’rishimiz mumkin.

Birinchi bo’lib bosh

صَبَحَ (subh) so’zini مرفوع kelishikdakilgan ko’rib chiqamiz.

قَالَتْ عَائِشَةُ: "حَضَرَتِ الصُّبْحَ فَالْتَمَسَ الْمَاءَ فَلَمْ يُوَجَدْ، فَتَرَلَّ النَّيْمُ" [11:51]

Oisha (r.a) aytadi: “Bomdod vaqti kirdi, suv qidirildi, topilmadi. Shunda tayammum (oyati) nozil bo’ldi” [4:240].

Ushbu hadisi sharifning tarjimasiga diqqat bilan qaraydigan bo’lsak ushbu hadisdagi صَبَحَ (subh) so’zi bomdod namozi ma’nosida kelayotganiga guvoh bo’lishimiz mumkin.

حَدَّثَنَا عَبْدُ اللَّهِ بْنُ يُسُفَ قَالَ: أَخْبَرَنَا مَالِكٌ، عَنْ نَافِعٍ، عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ عُمَرَ قَالَ: أَخْبَرَنِي حَفْصَةُ "أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ إِذَا اعْتَكَفَ الْمُؤَدِّنَ لِلصُّبْحِ، وَبَدَا الصُّبْحُ، صَلَّى رَكَعَتَيْنِ خَفِيفَتَيْنِ قَبْلَ أَنْ تَقَامَ الصَّلَاةُ" [11:134]

Abdulloh ibn Umar roziallohu anhumudan rivoyat qilinadi: “Menga Hafsa bunday xabar qildi: “Agar muazzin tongni poylab turganida tong otib qolgan bo’lsa Rosululloh (s.a.v) namozga iqoma aytilmasdan oldin yengilgina ikki rak’at namoz o’qib olar edilar” [4:501].

Ushbu tarjimada biz صَبَحَ (subh) so’zi tong ma’nosida kelgan. Yuqoridagi hadisda esa صَبَحَ (subh) so’zi bomdod namozi ma’nosida kelgan edi.

Demak, birinchi صَبَحَ (subh) so’zi ل predlogi bilan majrur (qaratqich) qilingan. Ikkinchi صَبَحَ (subh) so’zi esa بَدَا (ko’rinmoq, aniqlanmoq) fe’liga foil (ish-harakat bajaruvchisi) bo’lib kelmoqda.

Ikkinchi o’rinda tushum منصوب kelishigida kelgan صَبَحَ (subh) so’zini ko’rib chiqamiz.

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ بِتَحْدِيثِ عَنِ النَّبِيِّ ﷺ "ثُمَّ اضْطَجَعَ حَتَّى أَتَاهُ الْمُؤَدِّنُ، فَقَامَ فَصَلَّى رَكَعَتَيْنِ خَفِيفَتَيْنِ، ثُمَّ حَرَجَ فَصَلَّى الصُّبْحَ" [11:54]

Ibn Abbos r.a rivoyat qilingan hadisda Rosululloh (s.a.v) haqlarida shunday deydi: “Keyin muazzin kelguncha yonboshlab yotdilar. Shundan so’ng turib, yengilgina ikki rak’atnamoz o’qidilar. So’ngra chiqib, bomdod namozini o’qidilar” [4:248].

Ingliz tilida berilgan tarjimalarda esa, Then I went and stood by his side. (on his left side). He placed his right hand on my head and caught my right ear and twisted it. (pulled me, and made me to stand by his right side). He prayed two Raka’t then two Raka’t and two Raka’t and then two Raka’t and then two Raka’t (separately six times), and finally one Rak’a (the Witr). Then he lay down again in the bed till the *Mu’adhdhin* came to him whereupon the Prophet ﷺ got up, offered a two light Raka’t prayer and went out and led the **Fajr** (early morning) prayer. It was **subh** [8:121].

Ushbu o’rinda صَبَحَ (subh) so’zi tushum kelishigida (y) صَلَّى (namoz o’qimoq) fe’liga to’ldiruvchi bo’lib kelmoqda. Hadisi sharifning ingliz tilidagi tarjimasida صَبَحَ (subh) so’zi (Fajr prayer) bomdod namozi degan ma’noda kelgan.

مجرور صَبَحَ (subh) so’zi qaratqich kelishigida ham bir necha o’riplarda keladi. عَنْ عَائِشَةَ أُمِّ الْمُؤْمِنِينَ أَنَّهَا قَالَتْ: "أَوَّلُ مَا بَدَى بِهِ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ مِنَ الْوَحْيِ الرَّؤْيَا الصَّالِحَةَ فِي النَّوْمِ، فَكَانَ لَا يَرَى رُؤْيَا إِلَّا جَاءَتْ مِثْلَ فَلَقِ الصُّبْحِ". [11:11].

Mo’minlar onasi Oisha r.a dan rivoyat qilinadi: “Rosululloh (s.a.v) ga boshlangan ilk vahiy uyqudagi solih tushdir. U zot biror tush



ko'rsalar, tong yog'dusidek (aniq o'ngidan) kelmay qolmas edi" [4:118].

Hadisning ingliz tilidagi sharhida quyidagicha keltiriladi: Narrated 'Aisha, رضي الله عنها the mother of the faithful believers: The commencement of the (Divine) Inspiration to Allah's Messenger ﷺ was in the form of righteous good (true) dreams which came true like **bright daylight**, and then the love of seclusion was bestowed upon him [8:50].

Ushbu hadisi sharifda صبح (subh) so'zi qaratqich kelishigida kelmoqda, qaratqichda kelishligining sababi إِضَافَةٌ izofa (moslashmagan aniqlovchi) bo'lib kelmoqda. Ma'no jihatidan esa "tong" degan ma'noni ifoda qiladi.

وَعَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ، قَالَ "شَهِدَ عِنْدِي رَجُلًا مَرَضِيئُونَ وَارْتَضَاهُمْ عِنْدِي عُمَرُ، أَنَّ النَّبِيَّ ﷺ نَهَى عَنِ الصَّلَاةِ بَعْدَ الصُّبْحِ حَتَّى تَشْرُقَ الشَّمْسُ، وَبَعْدَ الْعَصْرِ حَتَّى تَغْرُبَ" [11:127]

Ibn Abbas r.a dan rivoyat qilinadi: "Ishonchli kishilarning – mening nazdimda ularning eng ishonchlisi Umardir – menga aytib berishlaricha, Nabi (s.a.v) bomdoddan keyin quyosh chiqquncha va asrdan keyin quyosh botguncha (nafl) namoz o'qishdan qaytarganlar" [4:479].

Ushbu hadisi sharifda صبح (subh) so'zi qaratqich kelishigida kelmoqda, qaratqichda kelishligining sababi yuqoridagidek إِضَافَةٌ izofa (moslashmagan aniqlovchi) bo'lib kelmoqda. Ma'no jihatidan esa "bomdod namozi" degan ma'noni ifoda qilib kelmoqda. وَعَنْ مُحَمَّدٍ قَالَ: وَسَمِعْتُ أَنَسَ بْنَ مَالِكٍ: "أَقْنَتَ النَّبِيُّ ﷺ فِي الصُّبْحِ؟، قَالَ: نَعَمْ، قِيلَ لَهُ: أَوْقَنْتَ قَبْلَ الرُّكْعِ؟، قَالَ:

بَعْدَ الرُّكُوعِ يَسِيرًا" [11:203]

Muhammaddan rivoyat qilinadi: "Anasdan "Nabi (s.a.v) bomdodda qunut o'qiganlarmi?" deb so'raldi. U: "Ha" dedi. "Qunutni ruku'dan oldin o'qirmidilar?" deyildi. U: "kuru'dan keyin, lekin yengil qilar edilar" dedi" [5:78-79].

Ushbu hadisi sharifda esa صبح (subh) so'zi lug'aviy ma'no jihatidan "bomdod namozi" degan ma'noni bildirib kelmoqda, lekin grammatik jihatdan esa فِي predlogiga مجرور bo'lib kelmoqda, bunday grammatik qoida arab tilida جار مجرور deb aytiladi. جار (jor) qaratqich kelishigida boshqaruvchi

yordamchi so'z bo'lsa, مجرور esa qaratqich kelishigidagi so'z.

Bundan tashqari صَبَاحٌ (saboh) so'zi Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadislarida faqat tong (kunning chiqishi) ma'nosida kelgan holatlarini uchratishimiz mumkin.

حَدَّثَنِي مُجَاهِدٌ، عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ عُمَرَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا، قَالَ: "أَخَذَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ بِمَنْكِبِي، فَقَالَ: كُنْ فِي الدُّنْيَا كَأَنَّكَ غَرِيبٌ أَوْ عَابِرُ سَبِيلٍ وَكَانَ ابْنُ عُمَرَ يَقُولُ: إِذَا أُمْسِيَتْ فَلَا تَنْتَظِرِ الصَّبَاحَ، وَإِذَا أَصْبَحْتَ فَلَا تَنْتَظِرِ الْمَسَاءَ، وَخُذْ مِنْ صِحَّتِكَ لِمَرْضِكَ، وَ مِنْ حَيَاتِكَ لِمَوْتِكَ" [11:1307]

Mujohid shunday so'zlab berdi: "Abdulloh ibn Umar (r.a) shunday dedi: "Rosululloh (s.a.v) yelkamdan ushlab, "Bu dunyoda xuddi g'aribdek yoki bir yo'lovchidek bo'lg'in!" dedilar". Ibn Umar: "Kech kirs, tong otishini kutma, tong o'tsa, kech kirishini kutma. Sog'lik paytingdan kasalligingga, hayotingdan o'limingga (foйда) olib qol!" der edi".

Ushbu hadisi sharifda صَبَاحٌ (saboh) so'zi tong ma'nosida, ya'ni (kun chiqishi) degan ma'noda kelyapti. Leksik jihatdan esa انْتَظَرَ (kutmoq) fe'lga to'ldiruvchi bo'lib tushum kelishigida kelgan.

Yana bir صَبِيحَةٌ (sobiya) so'zi Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadislarida faqat tong (kunning chiqishi) ma'nosida kelgan holatlarini uchratishimiz mumkin.

عَنْ أَبِي سَلَمَةَ، قَالَ: "سَأَلْتُ أَبَا سَعِيدٍ، وَكَانَ لِي صَدِيقًا فَقَالَ اعْتَكَفْنَا مَعَ النَّبِيِّ ﷺ الْعَشْرَ الْأَوْسَطَ مِنْ رَمَضَانَ، فَخَرَجَ صَبِيحَةَ عَشْرِينَ فَخَطَبَنَا، وَقَالَ: إِنِّي أَرَيْتُ لَيْلَةَ الْقَدْرِ، ثُمَّ أَنْسِيْتُهَا – أَوْ نَسِيْتُهَا – فَالْتَمِسُوهَا فِي الْعَشْرِ الْأَوَّلِ فِي الْوَتْرِ" [11:400]

Abu Salamadan rivoyat qilinadi: "Abu Sa'iddan (Qadr kechasi haqida) so'radim, u mening do'stim edi. U dedi: "Ramazondagi o'rta o'n kunlikda Nabi (s.a.v) bila birga e'tikof o'tirdik. Yigirmanchi kunning tongida tashqariga chiqib, bizga xutba qildilar va: Albatta, menga qadr kechasi ko'rsatildi, so'ng u menga unuttirildi (yoki unuttirildim). Uni oxirgi o'n kunlikning toq kechalaridan izlanglar." dedilar [6:58].

Ushbu Abu Salamadan rivoyat qilingan hadisi sharifda صَبِيحَةٌ (sobiya) so'zi tong ma'nosini bildirib kelmoqda. صَبِيحَةٌ (sobiya) so'zi o'rin-payt holi bo'lib kelmoqda, arab tilida o'rin-payt holi tushum kelishigida



kelishligi sababidan ushbu o'rinda ham kalima tushum kelishigida turibdi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, Imom al – Buxoriy rivoyat qilgan hadislarda payt ravishi vazifasida kelgan so'zlarning qo'llanilishi ko'plab ma'no va mazmunga ega ekanligini hamda turli grammatik qoidalarga mos holda o'zgarib kelishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Shu bilan birga, ushbu hadislardagi arab tilida payt ravishlari vazifasida kelgan subh so'zi o'zbek hamda ingliz tillariga qiyoslaganimizda o'ziga xos bir mazmunga ega bo'lishini, bir tildagi jumla boshqa bir tilga tarjima qililganda leksik-semantik qiyinchilikka

uchrab, ijtimoiy leksikaga xos o'zgarishlarga uchrashi mumkin ekan. Bu esa til hodisalariga subyektiv omilning ta'siri kuchining oshib borayotganligini ko'rsatadi. Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, asarlarda qo'llanilgan arab, o'zbek va ingliz tillaridagi payt ravishlarining umumiy jihatlarini emas, ularning qiyosiy va xususiy jihatdan ham o'rganish tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Har bir omil ilmiy jihatdan mukammal va sinchiklab o'rganilsa, boshqa tillardagi tarjimalarga qiyoslanilsa undagi so'zlar alohida olingan terminlar ekanligiga amin bo'lamiz.

Adabiyotlar:

1. Ibrohimov. N. "Al-Qomus" Arabcha – o'zbekcha qomusiy lug'at. II juz "G'afur G'ulom" nashriyoti, - Toshkent 2017. - 896 b.
2. Uvatov U. "Buyuk muhaddislar: Imom al Buxoriy, Imom Muslim, Imom at Termiziy. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, – Toshkent: 1998, -63 b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Oltin silsila (Sahihul Buxoriy)" 1- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, -Toshkent: 2013, - 670 b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Oltin silsila (Sahihul Buxoriy)" 2- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, - Toshkent: 2013, -670 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Oltin silsila (Sahihul Buxoriy)" 3- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, -Toshkent: 2013, - 670 b.
6. Владимир Абдулла Нирша. "Сахихаль-Бухари". В 2-хт. 1-изд.–.: Благотворительный фонд «Ибрагим бин Абдулазизаль Ибрагим», 2002, –471 с.
7. Dr.Muhammad Muhsin Khan, "Sahih al-Bukhari Arabic – English" Maktaba Darus-salam, Ar –Riyadh, 1994, 1097 p.
8. ابن فارس، معجم مقاييس اللغة، (3ج)
9. الخليل بن أحمد الفراهيدي، المعاجم و القواميس، 2007
10. أبو عبد الله محمد بن اسماعيل البخاري "صحيح البخاري"، دار كتاب العربي، بيروت لبنان، 2016م، 1728ص.

Темиров Ж. Лексико-семантическая характеристика слова (صبح) рассвет в хадисах, рассказанных Имамом ал-Бухарий. В статье представлены сравнительный анализ лексического и семантического значения слова "Заря" в хадисах, рассказанных Имамом аль-Бухари на примере узбекского и английского языков. (صبح) было проведено анализ, что слово "Рассвет" имеет разные значения и характеристики в разных языках, в которых сравниваются его грамматические, лексические и семантические аспекты.

Temirov J. The lexic semantic feature of the word صبح (morning) in the hadiths narrated by Imam al-Bukhari. (examples in Uzbek and English). The article presents a comparative analysis of the lexical and semantic meaning of the word "morning" in the hadiths narrated by Imam al-Bukhari using the examples of the Uzbek and English languages. (صبح) it was analyzed that the word "Break of day" has different meanings and characteristics in different languages, which compare its grammatical, lexical and semantic aspects.